

## EKOLOGIYA VA TABIATNI MUHOFAZA QILISHDA EKOLOGIK MADANIYATNING O'RNI.

**Niyozjon Sultanova**

*Xorazm yuridik texnikumi katta o'qituvchisi*

**Annotatsiya.** *Ushbu maqola ayni paytda juda dolzarb hisoblangan ekologiya tushunchasi va uni muhofaza qilish haqida batafsil so'z yuritilb, yurtimizda ekologik madaniyatni rivojlantirish bo'yicha qilingan ishlar va qabul qilingan qarorlar orqali asosiy fikrlar tasdiqlandi.*

**Kalit so'zlar:** *Ekologik madaniyat, Tabiiy resurslar, ekologik nazorat, ekologiya, atrof-muhit muhofazasi, sanoat, jismoniy va yuridik shaxs, tabiiy fanlar.*

Barchamizga ma'lumki sayyoramizning kelajagi yosh avlodning ekologik madaniyatiga bog'liq. Zero, global ekologik muammolarni faqat milliy va global miqyosdagi birgalikdagi sa'y-harakatlar bilan hal qilish mumkin. 1992-yil 15-aprel kuni BMTning atrof-muhit muammolarini muhokamasiga bag'ishlangan konferensiyasida insoniyat hayoti va barqarorligi uchun ekologik tarbiyaning ulkan ahamiyatiga to'xtalilib, o'tilgan va ushbu kunni "Ekologik bilimlar kuni" sifatida nishonlash taklif ilgari surilgan. Bundan asosiy maqsad esa ekologik bilimlarni targ'ib qilish, ekologik madaniyatni shakllantirish, aholini dolzarb ekologik muammolar va atrof-muhit holati to'g'risida xabardor qilishdan iborat hisoblanadi.

So'nggi yillarda yurtimizda global rivojlanish va iqlim o'zgarishlari bilan bog'liq ekologik muammolarni oldini olish va bartaraf etishda fuqarolarning ishtirokini ta'minlash, aholining ekologik madaniyatini yuksaltirish borasida tizimli ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, yangi tahrirdagi Konstitutsiyada davlat fuqarolarning ekologik huquqlarini ta'minlash va shaharsozlik faoliyati sohasida jamoatchilik nazoratini amalga oshirish uchun shart-sharoitlar yaratib berishi belgilab qo'yildi. 2030- yilgacha O'zbekiston Respublikasida "yashil" iqtisodiyotga o'tish va "yashil" o'sishni ta'minlash dasturida aholining ekologik huquqlari va majburiyatlari amalga oshirish belgilab qo'yildi.

Davlatimiz rahbarining 2023-yil 31-maydagi "Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasini transformatsiya qilish va vakolatli davlat organi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmonida ham aholi orasida ekologik ong va ekologik madaniyatni rivojlantirishga doir bir qator maqsad va vazifalar o'rin oldi.

Jamiyatda huquqiy ong va ekologik madaniyatni yuksaltirib borish qonun ustuvorligini ta'minlash va qonuniylikni mustahkamlashning eng muhim shartlaridan biri hisoblanadi.

Ushbu masalada oila, mahalla va nodavlat notijorat tashkilotlari hamda fuqarolik jamiyati boshqa institutlarining ishtiroki va ro'li alohida.

Hozirgi kunga kelib, butun dunyodagi ekologik holat ko'pchilikni birdek bezovta qilmoqda. Ekologik halokat ko'z o'ngimizda dahshatli tus olmoqda. Atrof-muhitni muhofaza qilish va mavjud tabiiy resurslardan samarali foydalanish masalalari dolzarb masalaga aylangan. Atrof-muhitni ifloslanishdan saqlash, tabiiy boyliklardan tejab-tergab foydalanish ko'p jihatdan insonlar qaysi jamiyatda yashashlaridan qat'i nazar insonlarning ekologik savodxonlik darajasiga va ekologik madaniyatiga bog'liq. Mustaqil respublikamizdagi ekologik muammolarni hal qilish uchun aholining ekologik savodxonligini oshirish eng ustuvor vazifalardan hisoblanadi. Ayniqsa, ta'lim tizimining barcha bosqichlarida «Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish asoslari» fanini o'qitish muhim ahamiyatga ega. Ekologiya – tirik organizmlarning o'zaro maqsadi hamda ular yashayotgan tashqi muhit bilan aloqasi va tirik organizmlar tizimidagi turli-tuman bog'lanishlarni o'rgatadigan fandır. Bu fan biologiya fanining tarkibiy bo'lagi bo'lishi bilan bir qatorda, kimyo, fizika, geologiya, o'rmonchilik, dehqonchilik, tuproqshunoslik, matematika va boshqa tabiiy fanlar bilan chambarchas bog'liqdir. Birinchi bo'lib “ekologiya” atamasini nemis olimi E.Gekkel fanga kiritdi, bu atama tirik dunyoning o'zini o'rab turgan muhit bilan o'zaro bog'liqligini o'rgatadi. Ch.Darvin ta'rifi bo'yicha, “yashash uchun kurashish sharoitlarini keltirib chiqaradi”. Bugun insoniyat uchun bundan zarur yoki ekologiyani, ekologik ong va tushunchani kundalik hayot tarziga singdirishdan ko'ra muhimroq ish yo'qdir. Ekologik ongni ekologik ta'lim va tarbiya, ma'lumotlar, insonlardagi ekologik ta'lim orqali qayta qurish, uning hayot tarzini va ma'naviyatini o'zgartirish zarur. Hozircha insonlar ongida ekologik qonunlarga bo'ysunmaslik, tabiatga shunchaki nazar bilan qarash tasavvurlari singib ketgan. Insonlarning tabiatga bo'lgan loqayd munosabatlari natijasida global isish va iqlim o'zgarishi, cho'llanish, Orol dengizining qurib borishi kabi muammolar tuzatib bo'lmaydigan ekologik krizislarni keltirib chiqardi. Ekologik tushunchaning faqat insonlar tomonidan va faqat ularga xos shakllanishi – antropomarkaz tushuncha deb ataladi. Antropomarkaz tushunchasi inson uchun tabiat eng qimmatbaho, oliy degan tushuncha bo'lib, bunda tabiat insonning shaxsiy mulki deb hisoblanadi. Tabiatni muhofaza qilish va uni asrash, kelgusi avlodlarga yetkazish bugungi kunda respublika hududida yashovchi har bir inson hayotidagi muhim vazifalarning biri hisoblanadi. Atrof tabiiy muhitni ifloslantirganlik uchun to'lanadigan haq yoki javobgarlik jarimalari respublika hududida barcha jamoat tashkilotlari va yakka shaxslar uchun ham amal qiladi. Tashlanadigan katta miqdordagi chiqindining avval joyi va uning ekologik xavfsizligi aniqlanmas ekan, buning uchun katta miqdordagi jarima to'lanadi. Tabiatni muhofaza qilish, tabiiy resurslardan foydalanishda davlat boshqaruvining eng asosiy vazifalaridan biri ekologik nazorat hisoblanadi. Tabiiy muhit doimo nazoratda bo'lishi

kerak. Inson o'zi yashaydigan ona tabiatni asrashi va saqlashi lozim. Chunki bu joyda bizning ajdodlarimiz yashagan, kelajakda shu joyda bizning avlodlarimiz hayotni davom ettirishini doimo esda tutmoq kerak. Ekologik nazorat tushunchasi – tabiatni muhofaza qilish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, ekologik xavfsizlikni ta'minlash qoidalari va talablarini vazirliklar, davlat qo'mitalari, korxonalar, tashkilotlar, muassasalar, mansabdor va jismoniy shaxslar tomonidan bajarilishini tekshirish, tabiiy muhitni o'rganish va kuzatish kabi jarayonlar bilan bog'liq siyosiy-huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy va ma'naviy-ma'rifiy chora-tadbirlar faoliyati yig'indisini o'z ichiga oladi. Ekologik nazorat tizimi davlat nazorati, idoraviy nazorat, ishlab chiqarish va jamoat nazoratidan iboratdir.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Mirziyoyev Sh. M. 2017—2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha HARA KATLAR STRATEGIYASI.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning "Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirish to'g'risida"gi Farmoni. 21-aprel 2017-yil, Toshkent.
3. D.Yo.Yormatova. Ekologik monitoring. –T.: "Fan va texnologiya", 2011. 4. В.И.Коробкин, Л.В.Переделский. Экология для студ